

## GRUNTЛИ KANALLARDAGI OQIMNING YUVMASLIK TEZLIKALARINI HISOBINING TATLILI

*Vafoyeva Aziza Toshtemir qizi*

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti.*

**Annotatsiya.** Oqimning yuvmaslik tezliklari va oqiziqlar sarfini aniqlashning gidravlik asoslangan yangi hisob usullari rivojlantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Oqiziqlar, yuvmaslik tezliklari, kanal, gidravlik xisob.

**Анастасия:** Разработаны новые методы гидравлического расчета для определения расходов и расхода сточных вод.

**Ключевые слова:** Расходы, скорости промывки, канал, гидравлический расчет.

**Kirish.** Kanallar foydalanish maqsadiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: energetik, kema yuruvchi, suv o‘tkazuvchi, sug‘orish, meliorativ, kopleks va boshqa. Suv sarfi bo‘yicha kanallar quyidagicha bo‘ladi: juda katta ( $Q < 1000 \text{m}^3/\text{s}$ ), katta ( $Q = 300 \dots 1000 \text{ m}^3/\text{s}$ ), o‘rtacha ( $Q = 50 \dots 300$ ) va kichik ( $Q < 50 \text{ m}^3/\text{s}$ ). Suv manbasidan kanalga suv nishablik bo‘yicha og‘irlik kuchi ta’siri ostida oqib kelsa, bu o‘zi oqar kanal deb ataladi.

Bu kanallar ko‘proq tarqalgan bo‘lib, ular arzon va foydalanishda qulayligi bilan ajralib turadi. Bunday kanallarga misol qilib “Katta Farg‘ona” va “Qaraqum” kanallarini keltirish mumkin. Suv manbasidan suv nasos stansiyalari yordamida ko‘tarilib, keyin esa o‘zi oqsa bunday kanallarga mashina kanallari deyiladi. Bu kanallar quyidagi vaziyatlarda quriladi: - suv manbasi suv iste’mol qilish joyidan pastda bo‘lsa; - o‘zi oqar kanalni o‘tkazishda juda katta xajmdagi yer ishlari bajarilsa. Bu kanallarga misol qilib “Amu-Buxoro” va “Qarshi” magistral kanallarni ko‘rsatish mumkin. Suv oqar o‘zanning yuvilish jarayonida oqimning xarakteri faol kuchlarni, grunt fizik-mexanik xossalari esa sust (qarshilik kuchlarni) kuchlarni ifoda etadi. Oqim dinamik omillarining o‘zan gruntining yuvilishiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

Hozirgi vaqtida suv oqar o‘zanning ishonchligi va mustahkamligini baholashda quyidagi ikki usuldan foydalaniladi:

1) gruntlarning yuvilishga chidamliligini ifodalovchi oqimning yuvmaslik tezligi usuli;

2) suv oqar o‘zan oqimining harakat yo‘nalishi bo‘yicha tubi ostidagi zarrachalarga ta’sir qilib, ularni chiqaradiagn (siljutuvchi yoki ishqalanish kuchlari) kuchlar usuli.

Kanalni loyihalashda va hisoblashda asosiy masalalardan bo‘lib, ruxsat etiladigan tezliklarni tanlash, kanal suv sathi bo‘yicha enini, o‘rtacha va maksimal chuqurliklarini hamda kanal normal suv sathidagi o‘zan shaklini belgilash hisoblanadi.

Oqim yuvmaslik tezliklari usulining asosiy maqsadi shundan iboratki, bunda kanal suv oqimining o‘rtacha tezligi uning tub osti va yon tomonlarining gruntlarini yuvadigan oqim tezligidan katta bo‘lmasligi va shu qatorda oqiziqlar cho‘kishi tezligidan esa kichik bo‘lmasligi kerak, ya’ni

$$\vartheta_{\text{q}\ddot{\text{y}}\text{k}} \leq \vartheta_{\text{y}\ddot{\text{p}}} \leq \vartheta_{\text{adm}}$$

bu yerda  $V_{\text{cho}^{\cdot}k}$  (kanal oqiziqlarining cho‘kishiga va o‘simliklar o‘sishiga yo‘l qo‘ymaydigan oqimning minimal o‘rtacha tezligi;  $V_{\text{adm}}$  (oqimning ruxsat etilarli tezligi;  $V_{\text{o}^{\cdot}r}$  (oqimning o‘rtacha tezligi).

Bu shartning bajarilishi natijasida kanal gruntlari oqim tomonidan yuvilmaydi va harakatlanayotgan oqiziqlar tub ostiga cho‘kmaydi, ya’ni kanalning to‘g‘ri ishslash rejimining bajarilishi ta’milanadi. Tadqiqotlar oqimning o‘rtacha yuvmaydigan tezliklari uchun quyidagi funksional bog‘lanishni yozish mumkinligini ko‘rsatadi.

$$\vartheta_0 = f(\gamma_s, \gamma, S, T, N, M).$$

Bu yerda  $T$  – turbulent oqimni hisobga oluvchi parametr;  $N$  – zarrachalar orasidagi bog‘lanishni hisobga oluvchi parametr;  $M$  – boshqa kattaliklar. Akad.S.YE.Mirsxulava tomonidan taklif etilgan bog‘lanmagan gruntlarning yuvmaslik tezliklarini o‘rnatish bo‘yicha bog‘lanishlari nazariy jihatdan asoslangan bo‘lib hisoblanadi. Bu bog‘lanish kanal tub ostining tekis bo‘lmagan sirtiga, umumiy massadan gruntuining toliqish holatini hisobga olgan holda alohida zarrachalar uzilish kuchlarining va turbulent oqim tomonidan ta’sir etadigan kuchlarning hamda siljishga qarshilik kuchlarning tengligi shartlarini tahlili asosida keltirib chiqarilgan. Bog‘lanish quyidagi ko‘rinishga ega:


$$\begin{aligned} D_{te} &= \left( \lg \frac{8.8h}{d} \right) \sqrt{\frac{2m}{0.44\rho n} [\rho(\rho_{yy} - \rho)d + 2C_{km}^n k]} \\ D_{he} &= 1.25 \sqrt{\frac{2m}{0.44\rho n} [\rho(\rho_{yy} - \rho)d + 2C_{km}^n k]}. \end{aligned}$$

Bu yerda (kesim bo‘yicha oqimning ruxsat etiladigan yuvmaydigan tezligi, (o‘zan g‘adir-budirligining balandligidagi oqimning tubi oldidagi ruxsat etiladigan tezligi, mos ravishda grunt zarrachasi materialining va suvning zichligi, 3 kg/m<sup>3</sup>; d-grunt zarrachasining o‘rtacha diametri, bog‘lanmagan gruntuining uzilishidagi kuchsizlangan mustahkamlik, ya’ni bu parametr bilan mayda donador (0,25 d( mm bo‘lganda) gruntlarda sezilarli tishlashish kuchlarning hosil bo‘lishini hisobga oladigan koeffitsiyent, oqim tarkibida bo‘lgan kolloid holatdagi oqiziqlarning oqim yuvish qobiliyatiga ta’sirini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Eksperimental tadqiqot ma'lumotlarini qayta ishlab o'tkazilgan tadqiqot sharoitlari, ya'ni turli yon tomon qiyaliklarda yotqizilgan kanallar uchun quyidagi koeffitsiyentlar hosil qilindi:

$$\left. \begin{array}{lll} m=0 & \text{бўлганда} & K_0=0,93 \\ m=2 & \text{бўлганда} & K=0,76; \\ m=2,5 & \text{бўлганда} & K=0,78; \\ m=3,0 & \text{бўлганда} & K=0,83; \\ m=3,5 & \text{бўлганда} & K=0,88; \end{array} \right\}$$

bu yerda  $K_0$  va  $K$ - mos ravishda kanal tub osti va yon tomon qiyaliklarini hisobga oluvchi koeffitsiyentlar. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra  $K_0$  koeffitsiyentni  $K_0 = 0,93$   $K$  ( deb qabul qilish mumkin.



1-rasm. bog'lanish grafigi

### Foydalanilgan adabiyotlar

- Latipov.SH.A. Laboratoriye issledovaniya nerazmivayushix skorostey potoka kanalov v zernistix grunta. «Eurasia Science» XXV Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya 15 noyabrya 2019 Nauchno-izdatelskiy «Aktualnost.RF» Sbornik statey chast I Collected Papers XXV International Scientific-Practical conference <> PART I
- Research and Publishing Center <>, Moscow, Russia November, 15, 2019 Moscow 2019 p. 84-85. 2. Mirsxulava S.YE. Nadejnosc gidromeliorativnix soorujeniy. M.: Kolos, 1974. 280 s.